



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARNING QIZIQISH VA QOBILIYATLARINI O‘STIRISHDAGI BA‘ZI MASALALAR

*Andijon davlat pedagogika instituti v.b.dotsent B.Qodirova,
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(boshlang‘ich ta’lim) yo‘nalishi 1 - bosqich magistranti N.Sobirjonova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqish va qobiliyatlari o‘yinli texnologiyalarda va o‘qituvchining pedagogik hamda psixologik mahorati orqali o‘quvchining qalbidan yo‘l topib rivojlantirish xususida tahlil qilinadi. Ushbu mavzu yuzasidan qilingan ishlar hozirda kam.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, o‘quvchi, ta’lim, ota-ona, qobiliyat, qiziqish, harakat.

НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ ИНТЕРЕСА И НАВЫКОВ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация: В данной статье анализируются интересы и способности учащихся младших классов с точки зрения их развития посредством игровых технологий и педагогических и психологических навыков учителя. В настоящее время по этой теме сделано мало работ.

Ключевые слова: учитель, ученик, образование, родитель, способности, интерес, действие.

SOME ISSUES IN THE DEVELOPMENT OF INTEREST AND SKILLS OF PRIMARY CLASS STUDENTS

Abstract: The article analyzes the interests and abilities of primary school students from the point of view of their development through gaming technologies and the pedagogical and psychological skills of the teacher. Currently, little work has been done on this topic.

Key words: teacher, student, education, parent, abilities, interest, action.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev 2023-yil 25-yanvardagi “Respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yishga doir birinchi navbatdagi tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-14-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida:

1. Quyidagilar:



Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi faoliyatining ustuvor yo'nalishlari

1-ilovaga muvofiq;

Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tizimida amalga oshirilayotgan tashkiliy o'zgarishlar dasturi 2-ilovaga muvofiq;

2. Maktabgacha va umumiy o'rta ta'limni yangi bosqichga olib chiqish, uning sifatini oshirish hamda ta'lim dasturlarini takomillashtirish maqsadida shunday tartib o'rnatilsinki, unga muvofiq 2023-2024 o'quv yilidan boshlab bosqichma-bosqich: umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-4-sinflarida o'quvchilarga boshlang'ich, 5-9-sinflarida tayanch hamda 10-11-sinf o'quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo'lgan bilimlarni berishga yo'naltirilgan o'quv dasturlari va o'quv-metodik majmualar joriy etiladi; umumiy o'rta ta'lim dasturlari va o'quv-metodik majmualarning fanlararo va sinflararo integratsiyasi ta'minlanadi; bilimni baholashning yangi tartibi joriy etiladi va uning doirasida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarning o'tilgan mavzuni amaliyotda qo'llay bilish, tanqidiy fikrlash va berilgan materialni tahlil qila olish kabi ko'nikmalari baholanadi; umumiy o'rta ta'lim muassasalarining boshlang'ich sinflarida informatika fani, o'rta sinflarda esa o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirishga qaratilgan darslar joriy etiladi; barcha fanlar bo'yicha amaliy mashg'ulotlar ulushi 60 foizga yetkaziladi. Bunda, darslardagi mavzular aniq muammoni hal qilish orqali o'rgatiladi, amaliyot darslari esa loyihani bajarish shaklida o'tkaziladi.(1).

Ta'lim insonning inson bo'lib shakllanishida, jamiyatda o'z o'rnini topishida alohida ahamiyatga ega. Boshlang'ich ta'lim esa bu borada o'ziga xos o'rin tutadi. Boshlang'ich ta'limga o'quvchilar odatda birinchi ijtimoiy tajriba sifatida qadam qo'yadilar. O'quvchilar ona tili faniga qiziqishlari va qobiliyatlarini o'yinlar misolida aks ettirishimiz mumkin. 1-sinf o'quvchilarining ayrim harflarni ajrata olmasliklarida ularning bir-biridan farqlashda qo'llashimiz mumkin. Masalan: 1-sinf o'quvchilarida b va d, g va g', x va h, i va I harflarini bir-biridan ajratishlarida shu harflarga mos rasm chizdirib shu rasm chizish orqali bolani idrokini o'stirishda foydalansa bo'ladi. Shunday qilib, o'quvchilarni rasm chizish orqali o'sha harfni eslab qolishi hamda o'quvchilarni topqirlikka o'rganadi.

O'quvchilarni turli fanlarga bo'lgan qiziqishlarini ortiradi, fikrlash doirasini o'stiradi, ularning tevarak-atrofga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalaydi mehnatsevarlikka o'rgatadi.



Ona tilida tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlar oldin egallangan bilimlarni faqat xotirada tiklashni va uni takrorlashni shu egallangan bilimlarni qisman yangi sharoitda qo'llashni talab etish mumkin o'quvchilarni va bolalarni erkatatish, uning istaklarini so'zsiz bajarish o'zbek oilaviy muhitida ko'p uchraydi. Yolg'iz farzand, yolg'iz o'g'il, yolg'iz qiz konsepsiyasi tobora ko'proq yetakchilik qilmoqda. Buning ta'lim sifatiga ta'siri turlicha bo'lishi mumkin: ota-onalar yolg'iz yoki kam sonli farzandlarining ta'limiga alohida e'tibor bilan qaraydilar. Shu bilan birga bunday farzandlarning erkatoyligi o'qituvchilarga muayyan qiyinchilik tug'dirishi mumkin.

O'qituvchilar kitobchadan asosan pedagogik yozuv va matematika va ona tili darslarida turli mavzularda qo'llaniladigan didaktik o'yinlar tavsiya qilingan. Ta'lim jarayonidagi qiyinchiliklar ularning o'qishga qiziqish va qobiliyatlarini so'nishiga sabab bo'ladi. Natijada bolalarning qobiliyatlari bilim olishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini diqqatini ihtiyorsiz bo'lganligi sababli bolada bilim olish davrida o'z-o'zidan bo'shliq hosil bo'ladi. Mana shu bo'shliqlarni to'ldirish uchun boshlang'ich sinfl dars davomida turli o'yinlar orqali bo'shliqlarni to'ldirish maqsadga muvofiqdir. Mana shunday hollarda qo'llanmadan foydalanish dars jarayonidagi murakkabli holatlarni yechimini topishga yordam beradi.

Yurtboshimiz aytganidek, Bizning asosiy maqsadimiz- yoshlarning sifatli ta'lim olishga imkoniyatiga ega bo'lishiga erishish ularning o'z qiziqish va qobiliyatlarini va istedodini rivojlantirish va ularni ro'yobga chiqarish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratib berishdan iborat

O'qituvchi dars jarayonida maxsus tayyorlagan multimediali ilovalardan, videolavhalardan, turli animasion materiallardan foydalanib, o'quv jarayoni tashkil qilinganda, o'quvchilarning amaliy va nazariy bilimlarini tafakkur va tasavvurlarini shakllantirishda mavzuga bo'lgan qiziqishlarini va qobiliyatlarini rivojlanishini orttiradi va tez tushunib olishlariga imkoniyat yaratadi. Shuningdek, dars davomida o'quvchilar charchab qolmasligi va zerikmasliklari uchun interfaol o'yinlar tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Xuddi shunday, boshlang'ich sinf o'quvchilarimizda matematika darslarida didaktik o'yin va krassvord boshqotirmalardan foydalanish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash va hozirjavoblik qobiliyatlarini yanada rivojlantiradi. Maktablarda boshlang'ich



sinf o'quvchilarimizni o'quv jarayonini axborot kommunikasiya vositalaridan foydalangan holda shakllantirish o'qituvchining ishtirokisiz mustaqil tarzda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan elementlarni, didaktik materiallarni berish (amaliy predmetli mazmunini aniqlash, har bitta alohida amallarning bajarilishi bo'yicha na'munalarni ko'rsatib berish, har bir harakat va amallarning bajarilishini nazorat qilib borish, masalaning yechilganligini, tugallanganligini baholash) uzluksiz tarzda ketma-ket kechadigan jarayondir. Boshlang'ich sinfda o'quvchilarni ingliz tili faniga o'qitish predmetlar muhitini elementlarini o'zgartiruvchi va boyituvchi sifatida qaraladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida aynan bunday yoshda o'quvchining aqliy qobiliyatlarini jadal rivojlanish jarayoni kechadi, uning intellektual salohiyatini rivojlanishi uchun fundament yaratiladi. O'quv jarayonida pedagogik, innovasion va axborot texnologiyalaridan foydalanish boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalarini samarali yechish uchun imkoniyat yaratadi, jumladan:

- o'quv jarayonini qiziqarli darslarni tashkil qilish qilish o'quvchini o'zi yasab kelgan ko'rgazmali qurollarni foydalanib olish motivasiyasi ortadi;
- O'quvchilarimizda mustaqil ishlash va o'zini-o'zi nazorat qilish bilim va malaka ko'nikmasi rivojlanadi;
- darsning samaradorligini va har bir o'quvchining o'zlashtirishini ta'minlaydi;
- har bir o'quvchining fikrlashini, bilish hissiyotini, maqsad sari intilishlarini, ma'naviy tasavvurlarini rivojlantirish hisobiga umumiy faol rivojlanishga erishiladi;
- sinfdagi barcha o'quvchilar faol ishlashi ta'minlanadi.(2).

Innovatsion va axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq qilishni zamonaviy axborot dunyosining rivojlanishidagi mantiqiy va zaruriy qadam deb xarakterlash mumkin. Ingliz tili va kompyuterlarning o'quv jarayoniga jadal kirib kelishi pedagoglar hayotida misli ko'rilmagan darajada o'qitishning yangi turlarini va metodlarini, shakllarini keltirib chiqardi. Boshlang'ich ta'limda axborot texnologiyalaridan foydalanish ikkita asosiy masalani yechish bilan bog'liq: o'quvchilarimizni yangi texnikaviy vositalardan foydalanishga o'rgatish va o'quvchilarning o'qish va o'qishdan tashqari faoliyatida yangi imkoniyatlarini ochish va takomillashtirish maqsadida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.



Darslarda ko‘proq ingliz tili va axborot texnologiyalaridan foydalanish pedagoglar oldiga quyidagi talablarni qo‘yadi:

- zamonaviy pedagoglar va o‘quvchilar kompyuterdan foydalanishni bilish; (3)

Men xulosa qilib aytamanki, boshlang‘ich ta‘lim o‘qituvchisi ta‘lim-tarbiya ishlarini yuqori saviyada tashkil qilishi darkor.

Xususan:

- dars mashg‘ulotlarni davlat ta‘lim standartlariga muvofiq holda tashkil qilish va olib borish;
- darslarni zamonaviy pedagogik usullar va AKT vositalari asosida tashkil qilish;
- ta‘limni tarbiya bilan uzviy holda olib borish, o‘quvchilarning ma‘naviy-ma‘rifiy ongini shakllantirish kabi vazifalarni oqilona hal etish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Umumiy pedagogika “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2018
2. Boshlang‘ich sinflarda matematika o‘qitish metodikasi. Toshkent-2005
3. Avliyoqulov N.X. “Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari”-Toshkent, 2001
4. Selevko G.K. Zamonaviy ta‘lim texnologiyasi: darslik. - M.: Xalq ta‘limi, 2004 yil. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali.

[5.WWW.OPENSOURCE.uz](http://WWW.OPENSOURCE.uz)